

O'QUVCHI YOSHLARNING KASB TANLASHDAGI IMKONIYATLARI, HOHISH VA ISTAKLARINI ERTA ANIQLASHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK USULLARI

A'zamova Gulzira Ozodovna
Toshkent viloyati Parkent tumani
16-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Kasblar ko'p, lekin ular orasidan sevimli kasbni tanlashimiz– bu hayotga qo'ygan ilk qadamimiz hisoblanadi. Har bir inson dunyoga kelibdiki, hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'ladi. Bu maqsad orqasidan nimalarga erishish mumkin? Hayotda o'zi xoxlagan narsalarga erishishi, buning natijasida baxtli yashashi mumkin. Sevimli kasbni tanlashda avvalo odam o'zining his-tuyg'ulariga e'tibor berishi lozim.

Kalit so'zlar: kasb, mehnat, tasavvur, tanlash, muammo, ruhiyat, baxt, maqsad, psixologik yordam, ruhiy jarayonlar, psixika, aqliy faoliyat

KIRISH

Kasbni to'g'ri tanlash asosida o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. Demak, o'quvchilarni kasb tanlashda yo'llash, kasb-xunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi maktablarda texnologiya fani o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Shuning uchun kasb tanlashga yo'llash va texnologiya fanidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligiga erishishi uchun albatta quyidagilarga alohida e'tiborni qaratishlari zarur:

- zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviy-moddiy qadriyatlari mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- pedagogik va innovatsion texnologiyalarning asl mohiyati va uslublarini tushinib, qo'llay bilishi;
- o'quvchilarni mustaqil kasb-hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratishi;

- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil ("Kasb darsi", "Aqliy hujum", "Zinama-zina" va b.) uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;

- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishishi;

- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Umumiy ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini boshlang'ich sinflardan boshlab quyidagi talablar qo'yilishi o'rinlidir:

- milliy g'urur – bu o'z yurtining tarixini bilish;
- ularni erkin fikrlashga tayyorlash, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish;

- umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish; o'z millati va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni hurmat qilish;

- milliy istiqloq g'oyasi va mafkura asoslariga amal qilish;

- mustaqil va ijodiy fikrlash;

- ma'naviy-ahloqiy madaniyatga ega bo'lish;
- kasbiy-mehnat faoliyatida ekologik mas'uliyatni his qilish;
- kompyuter va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;
- maqsadni o'z oldiga to'g'ri qo'ya bilish;
- maqsadga erishish uchun bilim, ko'nikma va malakaga ehtiyoj sezish;
- bilim va qobiliyatni namoyon qilishga ehtiyojni kuchaytirish;
- o'ziga nisbatan talabchanlik, hulqi, xatti-harakatlaridagi kamchiliklarga tanqidiy munosabatda bo'lish;
- ta'lim muassasasi faoliyati jarayonida faol ishtirok etish.

Hozirgi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik-psixologik va umumtexnik va kasb ta'limi mutaxassislari olib borayotgan ishlar salmoqli o'ringa egaligi ma'lum. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning kasbiy bilimlar va ko'nikmalarini shakllantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish ishlari ko'proq kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar, pedagog-psixologlar zimmasiga tushadi. Shu munosabat bilan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga mas'ul mutaxassislarning quyidagi pedagogik-psixologik va umukasbiy tayyorgarligiga ega bo'lishi va kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yilgan talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, *birinchidan* - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi va pedagog-

psixologlarni hamda umumtexnik va kasbiy ta'lim mutaxassislari malakasini va saviyasini oshirib borish, ularga o'quv kursi va seminarlar tashkil qilib amaliy yordam berish va moddiy ehtiyojlarini qondirilishi; *ikkinchidan* – o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlarini, moyilliklarini kuchaytirish maqsadida har xil kasb-hunar navatorlari bilan davra suhbatlari, baxsmunozaralar, hunarmandlar maydoniga sayohatlardan mahorat bilan foydalanishi; *uchinchidan* - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda mahalla va ota-onalarning rolini oshirish, sinf rahbarlari bilan ota-onalar hamkorlikda har oyda bir marta "Kasbiy maslahatlar kuni"ni tashkil etib, ular bilan turli kasb-hunarlarga tayyorlashda uchraydigan muammo va echimlar to'g'risida davra suhbatlarini uyushtirib turish; *to'rtinchidan* – bir necha yillar davomida halol mehnat bilan elga tanilgan xalq xunarmandlari va mehnat faxriylari bilan "Mehnat, mehnatning tagi rohat", "Mehnat-baxt keltiruvchi omil", "Kasb-u kamol xusn-u jamol" kabi mavzularda uchrashuvlar tashkil etish kabi tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasblar ko'p, lekin ular orasidan sevimli kasbni tanlashimiz– bu hayotga qo'ygan ilk qadamimiz hisoblanadi.

Har bir inson dunyoga kelibdiki, hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'ladi. Bu maqsad orqasidan nimalarga erishish mumkin? Hayotda o'zi xohlagan narsalarga erishishi, buning natijasida baxtli yashashi mumkin. Sevimli kasbni tanlashda avvalo odam o'zining his-tuyg'ulariga e'tibor berishi lozim. Odam jamoat oldida o'zini tutishi ham muhim o'rin egallaydi. Odamlar bilan bevosita aloqada bo'ladiganlar shirinso'z va gapga usta bo'lishi kerak. Shunda ish vaqtida har bir gapga javob topib keta oladi. Masalan, shifokorlarni oladigan bo'lsak, ular sovuqqon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Chunki, shifokorda achinish tuyg'usi bo'ladigan bo'lsa, bemorga to'g'ri yordam ko'rsata olmaydi. O'qituvchilarni oladigan bo'lsak, ular o'quvchilarni darsga, o'ziga va atrofdagi narsalarga qiziqtirib qurishi kerak. Shunda shu o'qituvchining darsi doimo qiziqarli, mazmunli va har doim bolalarni o'ziga jalb qiladigan bo'ladi. Yoshlarni o'zi yoqtirgan kasbga qanday jalb qilsa bo'ladi? Avvalo hamma yoshlar ham o'zi qiziqqan sohasini to'liq bilmaydi, ya'ni, kasblar haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Buning uchun o'qituvchilar ko'magida, ishini

sevvuvchi va o'z ishini ustasi bo'lgan xodimlar bilan uchrashuvlar, “ochiq eshiklar kuni”



kabi ochiq muloqotlarda o'quvchi yoshlarga kerakli bilimlarni berish lozim. Bunda o'qituvchilar qanday yordam berishadi? degan savol tug'ilishi tabiiydir. Suhbat o'tqazgan ishchi xodim suhbatidan o'quvchi ruhiyatiga bog'liq bo'lgan tomonlarini aytib o'tish, o'quvchi bilan individual ishlash va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlarga maslahat berish kerak bo'ladi. Bu ishini ko'proq sinf rahbarlari va psixolog o'qituvchilarga topshirish tavsiya etiladi. Negaki, o'quvchi ichidagi gaplarini hammaga ham aytavermaydi. Agar o'quvchi bilan ko'proq suhbat o'tkazilsa, bunday hollarda o'quvchi o'qituvchiga ishonishni boshlaydi. Buning orqasidan uning nimaga qobiliyati bor, nimaga ko'proq qiziqadi degan savollarga javob olish mumkin, lekin shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday vaziyatda har bir aytilgan gap o'quvchini yo ishontiradi yo butunlay o'z qobig'iga o'ralib olishiga sabab bo'ladi. Bu qobiqni hammaga ham ochavermaydi. O'quvchi o'smirlik davrida hammaga narsaga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan, hammaga ham ishonavermaydigan bo'lib qoladi. Psixolog shunaqa o'quvchilar bilan gaplashganda uning har bir so'ziga ishonishni boshlaydi. Shu tariqa o'quvchi o'z qiziqishlarini bilib olishga intiladi. O'quvchi uchun hamma kasblar haqida to'liq ma'lumot berilganda, uning fikri o'zgarib, o'zini boshqa kasblarda namoyon qilishi aniq bo'ladi.

XULOSA

Nega biz tanlaydigan kasbimizni sevishimiz kerak; ishlasak, pul topsak, oila tebratsak bo'ldimasmi? degan savollar o'smirlarda ko'p paydo bo'ladi. Biz o'z kasbimizni sevishimiz orqali kasbiy toliqishni orqaga surishimiz mumkin. O'zimizga yoqadigan kasbni egallashimiz orqali hayotdan rozi bolib yashaymiz. Ammo muammoning ikkinchi

tomoni ham bor , moddiy tomondan qiynalsak, und anima bo'ladi? Tasavvur qilaylik ,oldimizda ikkita tanlov turibdi. Birinchisi sevimli kasbimiz va yana bitta kasb. Sevgan kasbimizdan qoniqamiz, lekin moddiy tomondan qiynalishimizni bilamiz. Ikkinchi kasbda esa sevmaymiz, lekin ishlasak bo'ladi. Moddiy tomondan ham qiynalmaymiz. Shu vaziyatda ikkinchisini tanlab qolganiga e'tibor bermasak, tez orada, ya'ni 30-45 yoshlar oralig'ida kasbiy toliqish paydo bo'ladi. Odam o'zini kasbini sevmaganidan keyin o'zini ustida ishlaganini foydasi kam bo'ladi. Bunday vaziyatda nima qilishim kerak? To'g'ri hozirgi tez o'zgarib ketayotgan zamonda moddiy tomondan yetishmovchilik bo'lishi ancha orqada qolishga sababbo'lishi turgan gap. Ayniqsa hozir ko'pchilik yurishturishingga, kiyinishingga va topayotgan daromadingga qarab muomala qilishadi. Shuning uchun bu yerda berilgan ikkinchi kasbni tanlab, sevgan kasbimizni tashlab qo'ymasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. E.G'oziev. Ontogenez psixologiyasi. "Noshir", -T.: -2010.
2. E.G'oziev. Psixologiya. -T.: 2010. 76-bet.
3. Ziyo net
4. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi.